

MAMLAKATIMIZDA SOLIQDAN QOCHISH HOLATLARINI ANIQLASH VA UNI BAHOLASH AMALIYOTI TAHLILI

*O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va
moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasi
huzuridagi Fiskal institut magistranti
Mirpulatov Jaxongir Muzapparovich*

Annotasiya: Mazkur maqolada respublikamizda so'ngi yillarda mamlakatda soliq va moliya sohalarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda biznes doiralarning ishonchini yanada mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar yoritilgan. Shu bilan birga, iqtisodiyotda yashirin aylanma savdo va umumiyligini ovqatlanish, avtotransportda tashish, uy-joy qurilishi va ta'mirlash, turarjoy xizmatlarini ko'rsatish kabi sohalar o'rganilib, xorij tajribasi, mamlakatimizda uni qo'llash bo'yicha ilmiy-amaliy xulosa va takliflar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: soliq tushumlari, tahlika-tahlil, xavflar, samaradorlik, raqamli platforma, usullar va vositalar, ilg'or axborot-kommunikasiya texnologiyalari, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Kirish: O'zbekistonda keyingi-yillarda yashirin iqtisodiyotning hissasini kamaytirish, u orqali yuzaga keluvchi soliqdan qochish holatlari hamda soliq to'lovchilar tomonidan soliq to'lashdan bo'yin tov lash holatlarini kamaytirish hamda ularning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni samarali amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish borasida me'yoriy-huquqiy bazani mustahkamlash, sohani raqamlashtirish natijalari hisobiga yashirin iqtisodiyotni jilovlash, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, yashirin ish

o‘rinlarini legallashtirish, nazorat tadbirlarini o‘tkazish yo‘nalishida tizimli ishlar olib borilmoqda.

Qayd etish joizki, soliqqa oid munosabatlarda soliqdan qochish holatlarini aniqlash va uni baholashni amalga oshirishning juda murakkabligi bu jarayonni tartiblashni qiyinlashtiruvchi omillardan bo‘lib qolmoqda. Keyingi yillarda soliqdan qochish holatlarining amaliy tahlillari shuni ko‘rsatmoqdaki, tarmoqlar bo‘yicha bu holat eng ko‘p uchraydigan tarmoq bu qurilish, savdo va umumiyligi ovqatlanish tarmog‘i, alkogol mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarini bo‘lib qolmoqda. Ayrim manbalarda keltirilganidek, “...ammo amalda, soliq to‘lashdan bo‘yin tovplashni soliqni minimallashtirish harakatlaridan ajratish qiyinroq. Bu erda asosiy mezon - qonun buzilishi qanchalik “ongli” sodir etganligidir. Axir, moliya ekspertlarining fikriga ko‘ra, bu harakatlar o‘rtasidagi chegara ko‘pincha juda nozik”¹.

Darhaqiqat bu kabi murakkabliklarni anglash uchun soliq tizimida xavflarni baholash tizimidan kengroq foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. 1-rasmida keltirilganidek, qurilish korxonalarining faoliyati, ularning keyingi yillarda respublikamizda bajarilayotgan ishlarning umumiyligi salmog‘ida ulushining oshib borishi bu turdagidan korxonalarda soliqdan qochish holatlarining yuzaga kelishi yoki sharoitlar vujudga kelish imkoniyatlarining yuqoriligi soliq tizimi amaliyotida bu holatlar muntazam tahlil qilib borilmoqda.

Jumladan, davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, “2019- 2022 yillarda qurilish korxonalarini tomonidan tovar aylanma va bajarilgan ishlar hajmi o‘rtacha yildan yilga 15-20 foiz ortib borgan, biroq, bu korxonalarda o‘rtacha xarajatlar rentabelligi 2021 yildagi 10 foizdan 2022 yilda 3,1 foizga tushgan, faoliyat yuritayotgan 20303 ta korxona 5 mingga yaqinida (24 foizi) hujjatlariga muvofiq rentabellik 0 foizdan past, 12 mingdan ortig‘ida (60 foizi) 0 foizdan 1 foizgacha va 904 (4 foiz) kompaniyada 1 foizdan 3 foizgacha rentabellik ko‘rsatkichi past

¹ <https://bakertilly.ua/ru/id36822/>

bo‘lgan, o‘z navbatida, 10 mingga yaqin (50 foiz) qurilish korxonalarida 1 nafar ishchi rasmiylashtirilganligi, haqiqatda ishlaydigan ishchilar soni yashirilayotganligini ko‘rsatadi”². Bu korxonalarda soliqdan qochish holatlariga olib keluvchi omillar baholanganda quyidagi “turar joy ob’ektlarini o‘rtacha bozor narxidan keskin darajada past narxda realizatsiya qilish, hisobotlarda xarajatlarni sun’iy ravishda oshirib ko‘rsatish orqali faoliyatini zarar bilan yakunlash natijasida foyda solig‘ini to‘lamaslik, jismoniy shaxslar tomonidan qurilish korxonalari ustav jamg‘armasiga yirik miqdorda pul mablag‘lari, bino va inshootlar, qurilish mollari (manbasi ko‘rsatilmagan holda) kiritish va realizatsiya qilish”³ kabi holatlar sabab bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Bu holatlarni aniqlashning amaliy holatini quyidagi keltirilgan 1-rasmida tushuntirib o‘tamiz.

Bularda tashqari soliq tizimi amaliyotida qurilish sohasida soliqdan qochish holatlarini aniqlash va uni baholashda yana bir qator usullar qo‘llaniladi. Ular jumlasiga, qurilish texnikalari va transport vositalarini shartnomaga tuzmasdan naqd pulga foydalanish (ijara)ga berish holatida soliq organlariga yil yakuni bo‘yicha taqdim etilgan moliyaviy hisobotlarda qurilish texnikalari va transport vositalari ko‘rsatilmagan qurilish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar olinib, qishloq va shahar qurilish tashkilotlaridan, hokimiyat va boshqa buyurtmachilardan olingan bajarilgan qurilish montaj ishlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan solishtirish hamda aniqlangan tafovutlar bo‘yicha tahlillar o‘tkazish usuli, belgilangan tartibda shartnomaga tuzmasdan qurilish va ta’mirlash ishlarini bajarish hamda naqd pulda hisob-kitob qilish jarayonini aniqlashda soliq organlariga yil yakuni bo‘yicha taqdim etilgan moliyaviy hisobotlarda qurilish montaj ishlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatilmagan xo‘jalik

² <https://m.kun.uz/news/2022/06/23/dsq-qurilish-sohasida-soliq-tolashdan-boyn-tovlash-holatlari-haqida-malumot-berdi>, <https://soliq.uz/press-services/news/show/qurilish-sohasida-keng-tarqalgan-soliqdan-qochish--boyn-tovlash-sxemalari>.

³ <https://soliq.uz/press-services/news/show/qurilish-sohasida-keng-tarqalgan-soliqdan-qochish--boyn-tovlash-sxemalari>.

yurituvchi sub'ektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar olinib, birja, elektron savdo va elektron hisobvaraq-faktura tizimi orqali qurilish mahsulot sotib olgan korxonalar bilan solishtiriladi hamda aniqlangan tafovutlar bo‘yicha tahlillar o‘tkazish usullaridan foydalaniladi.

Soliqdan qochish holatlarini aniqlash va baholashning eng muhim usullari qatoriga “offshorni baholash usuli” bo‘lib, bu keyingi vaqtarda keng qo‘llanilib kelinmoqda. Ma’lumki, Offshor bu qulay soliq sharoitiga ega davlatda xorijiy fuqaro tomonidan qayddan o‘tgan, ushbu mamlakatda faol ish yuritmaydigan firma bo‘lib, offshor kompaniyasi bu – korxonalarning alohida tashkiliy yuridik shaxs maqomini tavsiflovchi termindir. Bu maqom unga soliq to‘lovlarni maksimal darajada tushirishni ta’minlaydi (ko‘p hollarda nolgacha). Professor X.Abulqosimovning ta’kidlashicha, “kompaniyalarning offshor maqomi ularga o‘z faoliyatları davomida soliqlarni maksimal darajadan tushirishni, hatto yo‘q qilish, ya’ni butunlay soliqlardan ozod bo‘lishni ta’minlaydi. Faqatgina bu maqom talabi, biznes operatsiyalarini o‘z qonunchiligidan tashqarida olib borishni talab qiladi. Ya’ni offshor kompaniyasi o‘z qonunchiligini rezidenti bo‘la olmaydi”⁴.

Yashirin iqtisodiyotni soliqqa tortishning potentsial mexanizmlaridan biri bu naqd pul operatsiyalari monitoringini kuchaytirish va tartibga solishdir. Tadbirkorlik subyektlaridan elektron to‘lov tizimlari yoki boshqa kuzatilishi mumkin bo‘lgan to‘lov usullaridan foydalanishni talab qilish orqali soliq organlari daromadlarni yanada osonroq kuzatishi va hisobotdagi daromadlardagi tafovutlarni aniqlashi mumkin. Bundan tashqari, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlaganlik uchun jarimalarni oshirish va ijro mexanizmlarini takomillashtirish yashirin iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarini to‘xtatuvchi omil bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Yana bir yondashuv - tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatdan o‘tkazish va qonuniy faoliyat yuritish uchun imtiyozlar berish, masalan, soliq stavkalarini kamaytirish yoki soddalashtirilgan soliq hisoboti talablari. Oxir-oqibat, yashirin

⁴ X.Абулқосимов. “соликларни тўлашдан бўйин товлаш” мавзуси бўйича тақдимот.

iqtisodiyotning asosiy sabablarini va daromadlarni yashirish usullarini ko'rib chiqadigan ko'p qirrali yondashuv soliq to'lashdan bo'yin tovlashni kamaytirish va davlat daromadlarini oshirishda samarali bo'lishi mumkin. Yuqoridagi tahlillardan xulosa qilish mumkinki, iqtisodiy munosabatlar doirasida zimmalariga soliq to'lash majburiyati yuklatilgan soliq to'lovchilarning iqtisodiy hatti-harakatlari asnosida soliq to'lashdan qochish holatlarini aniqlash bu munosabatlarni oldini olishda uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar.

Yashirin iqtisodiyotni soliqqa tortish murakkab masala bo'lib, turli omillarni diqqat bilan ko'rib chiqishni talab qiladi. Yashirin iqtisodiyot mamlakatning soliq tushumlari, iqtisodiy o'sishi va umumiyo rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu muammoni hal qilish uchun hukumatlar yashirin iqtisodiyotni rasmiy sektorga olib kirishga qaratilgan samarali siyosat va strategiyalarni amalga oshirishlari kerak.

Yashirin iqtisodiyotni samarali soliqqa tortish huquqiy, tartibga solish va ma'muriy choralarni o'z ichiga olgan ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. Yashirin iqtisodiyotni soliqqa tortish uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan strategiyalarning ba'zilari soliqqa rioya qilishni va majburiyatlarni oshirishni, soliq stavkalarini pasaytirishni, soliq qoidalarini soddallashtirishni va soliq ma'muriyatini takomillashtirishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, rasmiy iqtisodiyotda ishtirok etishning afzalliklarini targ'ib qilish va yashirin iqtisodiyot bilan shug'ullanishning xavf-xatarlari va salbiy oqibatlari haqida xabardorlikni oshirish juda muhimdir. Bunga rasmiy iqtisodiyotning afzalliklarini targ'ib qilishga qaratilgan ta'lim kampaniyalari, targ'ibot dasturlari va boshqa tashabbuslar orqali erishish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yashirin iqtisodiyotni soliqqa tortish muhim masala bo'lib, uni hal etish har tomonlama va barqaror harakatni talab qiladi. Hukumatlar manfaatdor tomonlar bilan birgalikda yashirin iqtisodiyotni rasmiy sektorga olib kirishi, soliqqa rioya etilishini rag'batlantirish, iqtisodiy o'sish va

rivojlanishni qo'llab-quvvatlashi mumkin bo'lgan samarali siyosat va strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun ishlashi kerak.

Adabiyotlar:

Кристина Ф.Б. “The Informal Economy” march 2004, Шведский Международный агентство сотрудничества развития СЕ-105 25 Стокголма Швеция.

Аронов А ва Кашин В (2007) Налоги и налогообложение М.: Магистр.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.